

**TEMURIYLAR DAVLATI BOSHQARUVIDA SHOHRUX MIRZONING TUTGAN
O'RNI VA SIYOSIY FAOLIYATI**

Nurmanov Shahzodbek Mahmadoli o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi

shahzodbeknurmanov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning to'rtinchi farzandi bo'lgan Shohrux Mirzoning Temuriylar davlati boshqaruvida tutgan o'rni va siyosiy faoliyatiga doir masalalarga e'tibor qaratiladi. Maqolada hukmdor Shohrux Mirzoning tug'ilishidan tortib o'smirlilik-yoshlik yillarida va Sohibqiron yonida bir qator harbiy yurishlardagi ishtiroki, boshqargan hududlari hamda Amir Temur vafotidan keyin bosh-boshdoqliklar natijasida parokandalikka yuz tutgan saltanatning avvalga nufuzini tiklash yo'lida olib borgan harakatlari va harbiy yurishlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar. Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, Amir Temur, Xuroson, Sharafuddin Ali Yazdiy, Hirot, Samarqand taxti, Ka'baga yopilgan muqaddas ka'bapo'sh.

Abstract. This article focuses on issues related to the role and political activity of Shahrukh Mirza, the fourth child of Amir Temur, in the administration of the Timurid state. In the article, the ruler Shahrukh Mirza, from his birth to his teenage years, and his participation in a series of military campaigns near Sahibqiran, the territories he ruled, and the actions and military campaigns he carried out in order to restore the authority of the kingdom, which fell into disarray after the death of Amir Temur, as a result of conflicts attention is drawn.

Key words. Shahrukh Mirza, Mirza Ulugbek, Nizamiddin Shami, Zafarnama, Amir Temur, Khurasan, Sharafuddin Ali Yazdi, Herat, Samarkand throne, the sacred Ka'abash is closed to the Ka'bah.

Mirzo Shohrux (Shohrux ismining lug'aviy manosi Shoh (podshoh)ning yuzi degandir) bundan tashqari hukmdorning boshqa ismlari ham bo'lgan: Amirzoda Shohrux, Mirzo Shohrux, Shohrux mirzo, Xoqoni sa'id, Abu Nasr Shohrux bahodir sulton kabilari. Shohrux Mirzo 1377-yil 20-avgustida Temuriylar sultanati poytaxti Samarqandda tavallud topgan. Amir Temurning to'rtinchi o'g'li, buyuk astronom Mirzo Ulug'bekning otasi hisoblanadi. 1397-yildan Xuroson (hozirgi Afg'oniston) shohi bo'lgan. Nizomiddin Shomiy Zafarnomasida shunday yozadi: "Xuroson viloyatining hammasini Amirzoda Shohrux Mirzoga topshirdi va ulug' amirlardan uning xizmatiga tayin qilib jo'natdi" [1: 8]. 1409-yildan esa Movarounnahr va Xurosondagi birlashgan Temuriylar davlatining hukmdoriga aylangan. Hayoti davomida Temuriylar davlati bo'linishi to'xtatishga intilgan, markazlashtirishga jiddiy harakat qilgan.

Shohrux Mirzo yoshligidanoq ahkomi shariatga qattiq rioxaya qilib, diniy kitoblarga qiziqqan. Fosih Xavafiyning yozishiga qaraganda, Shohrux Mirzo Hirotning nufuzli xo'jazodalari rahnamoligida Xuroson hokimligini boshqargan. U 20 yoshigacha otasi Sohibqiron yonida bo'lib, harbiy yurishlarda, jumladan, Falastin yurishida ham faol qatnashgan [2: 10]. Amir Temur 1397-yilda unga Xuroson, Seyiston va Mozandaron hokimligini bergach, to 1405-yilgacha Xuroson hukmdori degan nom bilan kifoyalanadi.

Shohrux yoshligidan ilmga berilgan shahzoda bo'lgan. Qolaversa, uning kelib chiqishi ona tomonidan asilzodalardan emas edi. Shu omilni ayrim tarixchilar Shohruxning taxt vorisi etib tayinlanmaganing sabablaridan biri bo'lgan, deb ta'kidlashadi. Qolaversa, taxt vorisi Pirmuhammad garchi Temurning nevarasi bo'lsa-da, Shohruxdan bir yosh katta bo'lgan. Shubhasiz, yuqoridaq sabablar Shohruxni taxt vorisi bo'lishidan uzoqlashtirgan edi.

Tarixchilar Nizomiddin Shomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va Xondamir o'zlarining asarlarida Shohrux Mirozni "xoqoni sayid", "bahodir", deya ta'riflashgan [3: 218]. Shohrux

III МНПК "НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ"

22 ноября 2024, Россия – Узбекистан

www.iupr.ru, <https://wosjournals.com/>

Mirzoga nisbatan tarixiy manbalarda “ko‘ragon” unvoni ishlatilmagan. Bu esa Shohruxni chingiziylar xonadoni bilan qarindoshlik rishtalari yo‘qligidan darak beradi. Holbuki, “ko‘ragon” unvonini olish o‘sha davr taomiliga ko‘ra katta obro‘-e’tibor hisoblangan [4].

Yoshlik yillari Samarqandda o‘tgan, shu yerda dunyoviy va diniy ta’lim olgan. Amir Temur 1390 - 1391-yillar Dashti Qipchoqqa va 1392-yil g‘arbiy mamlakatlarga uyushtirilgan besh yillik yurishlari chog‘ida Shohruxni mamlakatni boshqarishga tayinlab qoldirgan. Ko‘p o‘tmay, Amir Temur Shohruxni o‘z yoniga chaqirib oladi va 17 yoshli Shohrux jangovar harakatlarda faol qatnasha boshlaydi. Amir Temur uni lashkarning manglay va juvong‘or qismlariga tayinlaydi, keyinroq esa, Samarqandga qaytarib, poytaxtni boshqarib turishni topshiradi [1: 11].

Amir Temur 1396-yil Shohruxga Xuroson o‘lkasini suyurg‘ol qiladi va tegishli qo‘sish hamda elat bilan birga uni o‘z mulkiga jo‘natadi. Shohrux Amir Temurning yetti yillik yurishida, xususan, Yaqin Sharqdagi harbiy harakatlarda bevosita qatnashgan, lashkarning ilg‘or, manglay, juvong‘or qismlarini boshqargan; janglarda shaxsiy dovyuraklik va mahorat namoyish etgan [5: 320]. Uni adolatparvar, raiyat tinchligini ko‘zlovchi shaxs sifatida bilganlar; qamalda qolgan shaharlar aholisi aksari hollarda sulh taklifi bilan Shohruxga murojaat qilganlar va u ham o‘z yordamini ayamagan.

Ba’zi hollarda, Amir Temur Shohruxni lashkarning o‘g‘ruq qismini qo‘riqlashga mutasaddi qilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”da yozishicha, Amir Temur hayotining keyingi yillarida Shohruxning davlatdorlik sifatlariga alohida e’tibor bergan. Chunonchi, Xitoya yurishi chog‘ida, saltanat xavfsizligini ta’minlash, xususan, g‘arbiy o‘lkalarni idora etish kabi katta mas’uliyatni Shohrux zimmasiga yuklaydi va uni Xurosonda qoldiradi. Sohibqiron 1391 - 1392-yillar mo‘g‘ullar bosqini davrida butunlay xarob qilingan Banokat shahri o‘rniga yangi shahar barpo etib [6: 351], u yerga atrof yerlardan aholini ko‘chirib obod qiladi hamda uni Shohruxga suyurg‘ol qilgach u Shohruxiya nomi bilan shuhrat topadi.

Amir Temur vafotidan so‘ng, 1405-yil martda Shohrux rasmiy ravishda Temuriylar sultanati hukmdori sifatida Xuroson taxtiga o‘tirdi va o‘z nomidan xutba o‘qitib, pul (tanga) zarb qildirdi. Shohrux hukmdorligining dastlabki yillarida Temuriylar sultanatida kuchli tarqoqlik yuzaga kelib, sultanatning turli qismlarida yakkahokimlik uchun kurash boshlanib ketdi.

Movarounnahrda Samarqand taxtini Xalil Sulton egalladi, Ozarbayjon va Iroqi Ajamni Qora Yusuf, Iroqi Arab hududini Sulton Ahmad o‘z qo‘liga kiritdi. Eron hududida ham temuriy shahzodalar o‘zaro nizolashardilar, Mozandaron, Balx, G‘ur va boshqa viloyatlarda ham isyonlar yuzaga keldi [7: 196].

Qobul va shimoliy Hind mulklarning hokimi bo‘lmish Pirmuhammadni ko‘pchilik taxt egasi sifatida ko‘rishni xohlamas edi. Buning ustiga u ancha uzoqda bo‘lib, Samarqandga tezlik bilan yetib kelishi uchun imkon ham yo‘q edi. Shuningdek, bu vaqtida Amir Temurning boshqa bir o‘g‘li Mironshoh (1366-1408) ham hayot bo‘lib, u ham asosiy taxt da‘vogarlaridan biri hisoblanardi [8: 36]. Amir Temur vafotidan so‘ng Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroq va boshqa yerlarda notinchilik boshlanib, g‘alayonli vaziyatlar yuzaga kela boshladi [4].

Ko‘plab saroy mulozimlari taxt egaligiga ko‘proq Shohruxni ma’qul ko‘rib, uning insoniy sifatlariga yuqori baho berishgan. Shohrux Mirzo taxt egasi bo‘lishidan avvalroq ham o‘zining oqillik va ilmlilik, zukkolik va taqvodorlik sifatlari bilan hurmat qozongan edi.

Amir Temur vafotidan so‘ng Shohrux Mirzo taxtga da‘vogarlar qatorida valiahd Pirmuhammad Mirzo bilan ittifoq tuzib, Samarqand hukmdori Xalil Sultonga qarshi kurashadi. 1407-yili Pirmuhammad Mirzoning fojiali o‘limidan so‘ng yakka o‘zi kurashni davom ettirib, 1409-yili Xalil Sulton ustidan qo‘li baland kelib, taxtni qo‘lga kiritgach, Movarounnahrni to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek Mirzoga, Balxni ikkinchi o‘g‘li Sulton Ibrohim

III МНПК "НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ"

22 ноября 2024, Россия – Узбекистан

www.iupr.ru, <https://wosjournals.com/>

Mirzoga, Hisorni marhum Muhammad Sulton Mirzoning o‘g‘li Muhammad Jahongir Mirzoga, Farg‘onani esa marhum akasi Umarshayx Mirzoning o‘g‘li Ahmad Mirzoga in’om qilib, o‘zi Hirota qaytib ketadi [9]. Mamlakatda shu davrdan anchayin tinchlik o‘rnataladi.

1409-yilning boshida Movarounnahrda siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi. Amir Xudoydod shu vaqtida Halil Sultonni Samarqand yonidagi Sheruz qishlog‘ida mag‘lubiyatga uchratib, uning o‘zini asirlikka oladi. Bunday vaziyatda Shohrux Mirzo 1409-yil 25-aprel kuni Amudaryodan o‘tib, Samarqand tomon lashkar tortadi. Amir Xudoydod qo‘sishinlarini Shohrux yuborgan harbiy qism tor-mor etib, Halil Sultonni asirlikdan ozod qiladi [8: 38]. Olijanob insoniylik sifatlariga ega bo‘lgan temuriy Shohrux Mirzo o‘zaro gina-qudratlarni unutib, Halil Sultonni yaxshi kutib oladi. Halil Sulton bilan Shohrux Mirzo o‘rtasida shayx Nuriddin vositachiligidan o‘zaro bitim imzolanadi. Bitimga ko‘ra, Halil Sulton Movarounnahr taxtiga da’vogarlikdan voz kechadi va Ray viloyatining hokimi etib tayinlanadi. Keyinchalik, Halil Sulton 1411-yil 4-noyabr kuni xastalanib, vafot etadi. Ba‘zi manbalarda, tarixchilar, uni zaharlab o‘ldirilgan, deya ta’kidlashadi [7: 23].

Shohrux Mirzo asta-sekin o‘z akalari Jahongir, Umarshayx va Mironshohlarning avlodini har xil yo‘llar bilan o‘ziga tobe qilib, Movarounnahr, Ozarbayjon, Iroq, Xuroson va Shimoliy Afg‘onistonidan iborat katta bir davlat jilovini o‘z qo‘liga kiritib, Hirotni o‘zining poytaxti deb e’lon qiladi va “ulug‘ xoqon” sifatida sultanatni boshqarishga kirishadi [6: 383].

Shohrux Mirzo Samarqand taxtini qo‘lga kiritgach, Movarounnahrqa 15 yoshli o‘g‘li Mirzo Ulug‘bekni noib etib belgilaydi. Shohrux o‘g‘li Ulug‘bekni hali yosh ekanligini inobatga olib, o‘g‘liga otaliq etib taniqli amir Shohmalikni tayinlaydi [2: 12]. O‘sha vaqtida siyosiy boshqaruv ishlari amalda otaliqning qo‘lida bo‘lgan. Shundan so‘ng, Shohrux Mirzo Hirota qaytib ketadi.

Shohrux Mirzo Amir Temur davlati o‘zagini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ladi. Umamlakat boshqaruvida temuriyzoda va nufuzli amaldorlardan aksariyatini o‘zi uchun ishonchhsiz, deb hisoblaydi. Ularning o‘rniga deyarli barcha viloyatlarga o‘z o‘g‘illari, nabiralari va o‘ziga yaqin tutgan qarindoshlarini noib etib tayinlaydi. Jumladan, Balx va Badaxshon Ibrohim Sultonga, Sheruz Suyurg‘at mishga, Qobul va Qandahor Qaydu Mirzoga, Xurosonning bir qismi Boysung‘ur Mirzoga, G‘arbiy Eron hamda Ajam (Iroq)ning bir qismi Sulton Muhammadga, Fors viloyati Abdullo Mirzoga suyurg‘ol (mulk) tarzida bo‘lib beriladi [10: 128]. Shu yo‘l bilan Shohrux boshqaruv tizimi qulay va ixcham bo‘ladi, deb o‘ylagan edi. Lekin, keyinchalik ishonchli qondoshlar ichidan ham isyonkor noiblar chiqa boshlaydi. Aynan ana shunday xiyonatlar sababidan Shohruxning nafaqat siyosiy vaziyati, hatto sog‘lig‘iga ham putur yetgan edi.

Shohrux o‘z hukmdorligi chog‘ida Temuriylar sultanatining hududiy kengligi, harbiy salohiyati, kuchli iqtisodiy mavqeini saqlashga intildi. Buning uchun Movarounnahr, Eron, Ozarbayjonga yurishlar qilib g‘alaba qozondi.

1429-yil Shohrux Ozarbayjonda xavfli kuchga aylangan amir Iskandar ibn Qora Yusuf ustiga deyarli butun sultanati hududidan lashkar yig‘ib yurish qiladi. Salmos cho‘lida ikkala tomon o‘rtasida qattiq jang bo‘ladi. Shohrux o‘g‘illari Mirzo Boysung‘urni lashkarning juvong‘orini, Ibrohim Sultonni barong‘orini boshqarishga belgilaydi; Muhammad Jo‘kiyni esa o‘ziga tegishli bo‘lgan g‘ul qismida qoldiradi [11: 66]. Shiddatli jangdan so‘ng Shohrux lashkari zafar quchadi.

Shohrux Seyiston va Badaxshonga lashkar jo‘natib, u yerlardagi isyonlarga chek qo‘yadi. 1405-yildan yetti yil davomida Xorazmni zabit etib turgan Dashti Qipchoq amirlariga qarshi Shohrux katta lashkar jo‘natadi va g‘olib kelib, Xorazmni Temuriylar sultanati tarkibiga kiritadi hamda viloyatni boshqarishga sarkarda amir Shohmalikni belgilaydi [12: 193].

Shohrux ko‘pgina nizolarni sulh yo‘li bilan bartaraf qilgan va bunda taniqli davlat arboblari va shayxlar xizmatidan keng foydalangan. Umuman, Shohrux hukmronligi davrida

III МНПК "НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ"

22 ноября 2024, Россия – Узбекистан

www.iupr.ru, <https://wosjournals.com/>

sharqda Mo‘g‘ulistonidan tortib g‘arbda Misr va Rum yerlarigacha, janubda Hindistonning markaziy qismidan boshlab shimolda to Dashti Qipchoq chegaralarigacha Temuriylar sultanati tarkibiga kirgan. Saltanatni suyurg‘ol tizimi bo‘yicha boshqargan; mamlakat hududini o‘g‘illari, nevaralari, qarindoshlari, xizmat ko‘rsatgan sadoqatli amirlariga suyurg‘ol qilib bergen.

Shohrux Mirzoning hukmronlik davrida Xitoy, Hindiston, Misr, Usmoniyalar imperiyasi bilan diplomatik aloqalar mustahkamlanadi. Shohrux 1419-yilda Amir Shodixo‘ja boshchiligidagi 500 nafar elchilik karvonini Xitoya jo‘natadi [11: 42]. Abdurazzoq Samarqandiy o‘z asarida yozishicha, 1412-yildan 1430-yilga qadar, Xitoy bilan jami besh marotaba elchilik almashinuvi bo‘lgan ekan [13: 91].

Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix”ida yozilishicha, Shohrux 1443-yil Misr podshosiga Ka‘ba uyiga yopinchiq kiygazishni so‘rab elchi yo‘llagan va rozilik olgan. Shu asosda 1444 - 1445-yil ka‘bapo‘sh tayyorlatib, uni shayx Nuriddin Muhammad al-Murshidiy va Shamsiddin Muhammad Abhariy vositasida Makkaga jo‘natadi [8: 52]. Ular ka‘bapo‘shni muqaddas Ka‘baga yopib qaytadilar.

Shohrux Mirzo Usmoniyalar sultoni Muhammad Chalabiya (1402-1421) maktub yo‘llaydi. Bu nomada Shohrux, agar Qora Yusufni Usmoniyalar mamlakatida ko‘rgudek bo‘lsa, uni temuriylar saroyiga jo‘natib yuborishini so‘raydi. Bu maktubga javoban Sulton Qora Yusufni, albatta, temuriylar saroyiga yuborishini aytadi [14: 106].

Shohrux bunyodkorlik ishlariga, xususan, shaharlar obodonchiligi va sug‘orish tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratib Hirot (1405-yil), Balx (1407-yil) shaharlarini tiklashga oliy farmon bergen. Chingizzon yurishi chog‘ida xarob qilingan (1220-yil) Marv shahrini qayta barpo etilib, unga Murg‘ob daryosidan ariq qazdirib suv keltirildi [15: 208]. Sug‘orish tizimi yaxshilandi, yangi yerlar o‘zlashtirildi, ekin maydonlari kengaydi. Shaharlarda hunarmandchilik va savdo rivojlandi, ko‘plab madaniy-ma’naviy muassasalar – madrasalar, masjidlar, xonaqohlar qurildi [11: 105]. Shohrux Mirzo ko‘p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflarkan, devon va saltanatni boshqarishda tadbirkor xotini Gavharshodbegim faol ishtirok etgan.

Shohrux hukmronligi davrida Temuriylar sultanatining xalqaro miqyosdagi nufuzi ortdi, davlatlar o‘rtasidagi elchilik munosabatlari Shohrux juda katta e’tibor bergen. Uning huzuriga Xitoy, Hindiston, Misr, Shom, Rim, Yevropa, Dashti Qipchoq hukmdorlaridan elchilar kelgani va Shohrux ham o‘z elchilarini jo‘natgani haqida Temuriylar davri tarixiy manbalarida ma’lumotlar qayd etilgan [11: 94] va ikkita elchilik haqida mukammal kundalik ham yozilgan.

1419 - 1422-yillar Xitoya borib kelgan safar xotirotlari, unda bevosita qatnashgan G‘iyosiddin Naqqoshning kundaligi hamda 1442 - 1444-yillar Janubiy Hindistonga borib qaytgan elchilarining safar tafsilotlari, uni boshqargan Abdurazzoq Samarqandiyining safarnomasida aks etgan [13: 200].

Shohruxning elchilar vositasida yo‘llagan maktublarida savdo yo‘llari xavfsizligini ta‘minlash va xalqaro savdo-sotiqni rivojlantirish alohida ta‘kidlangan. Buyuk Ipak yo‘li orqali savdo va elchilik karvonlari muntazam qatnab turgan. Shohrux o‘zining xalqaro siyosatida davlatlararo tinch-totuvlik va do‘stona munosabatlar ta‘minlanishini ustuvor yo‘nalish deb bilgan.

Shohrux Mirzo inson sifatida yumshoq tabiatli bo‘lganligi tufayli xotini Gavharshod begim saltanat boshqaruviga aralashib turgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Shohrux Mirzo umrining oxiriga qadar o‘z o‘rniga valiahd tayinlash masalasida bir qarorga kela olmagan [12: 226].

1446-yili Shohrux Mirzo o‘z nabirasi, Qazvin, Ray va Qum viloyatlari hukmdori Sulton Muhammadga qarshi yurish boshlaydi. Chunki Sulton Muhammad bobosi Shohrux Mirzoga qarshi bosh ko‘tarib, Xamadon va Isfahonni bosib olib, Sherozni qamat qilgan edi.

III МНПК "НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ"

22 ноября 2024, Россия – Узбекистан

www.iupr.ru, <https://wosjournals.com/>

Shohrux Mirzo qo'shini g'arbiy Eronda hech qanday qarshilikka uchramaydi. Nimagaki, bobosining kelayotganini eshitgan Sulton Muhammad Sheruz qamalini bo'shatib, toqqa qochgan edi. Qo'zg'alon aybdorlari ayovsiz jazolanadilar.

Mazkur harbiy yurishdan qaytayotganda Shohrux betoblanib, 1447-yili Ray viloyatida, 70 yoshida vafot etadi. Shohrux vafotidan keyin davlat Ulug'bekning qo'liga o'tdi. Ulug'bek Shohruxnинг qabrini Hirotdan Samarqandga ko'chiradi va Go'r-Amir maqbarasiga dafn qildiradi [2: 19]. Biroq Shohruxnинг vafoti Temuriylar sultanati uchun fojalarning debochasi bo'ldi. Ulug'bek Mirzo otasidan so'ng sultanatni birlashtirishga uringan bo'lsa-da, biroq yaqinlari va farzandining fitnasi sabab mamlakatni otasi kabi mustahkam bir ittifoq holiga qaytarolmadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi". Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchilik tarixida alohida o'ringa egadir. Jumladan hukmdor Shohrux Mirzo davri siyosati, diplomatiyasi, madaniyati kuchli davlatchilik asosida shakllanib, Markaziy Osiyo va jahonning ijtimoiy-madaniy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'z davrida mamlakatning ilm-fani, san'ati, shu bilan bir qatorda butunjahon sivilizatsiyasi rivojida ulkan hissa qo'shgan bu Ulug' zot nomi asrlar osha avlodlarning faxr-iftixori bo'lib kelmoqda. Temuriylar davri siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti, davlat boshqaruvi, diplomatik munosabatlari, elchilik aloqalari, qo'shin va uning tuzilishi boshqa masalalarga doir O'zbekiston va jahonda minglab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan arab, fors va uyg'ur tillaridagi manbalar tarjima qilinib, yangi ilmiy xulosalar berilmoqda.

Bugungi kungacha Shohrux Mirzoning siyosiy, harbiy va ilmiy qarashlari, pandnasihatlari va uning olimlar, shoirlar, shayxlar, san'at vakillari va o'z davrining bilimli, iste'dodli kishilariga bo'lgan munosabati barchani hayratga solib kelmoqda. Uning yaratuvchanlik va ilm-fanga homiylik faoliyati Xalil Sulton, Iskandar mirzo, Mirzo Ulug'bek, Boysung'ur mirzo, Ibrohim Sulton, Sulton Abu Said mirzo, Sulton Husayn mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sulolaning keyingi vakillari uchun ayni yo'nalishda dastak vazifasini bajargan.

Shohrux Mirzo davlat boshqaruvida qonuniylik,adolat, saxovatpeshalik, ilmma'rifatga rag'bat, g'amxo'rlik kabi tamoyillarda amal qilgan. Shohrux Mirzo Turonda tichlik o'mнатib, uning har jihatdan rivoji va osoyishta hayot kechirishi, davlatning qudratli bo'lishi uchun barcha chora-tadbirlar ko'rgani diqqatga sazovordir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mehritillayev M. Shohrux Mirzoning siyosat maydoniga kirib kelishi. Journal of new century innovations. Volume – 7, Issue 6, Iyun – 2022. P. 8.
2. Ahmedov A. Ulug'bek. Toshkent: Fan, 1994. B. 10.
3. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmua ul-bahrayn. Toshkent: O'zbekiston, 2008. B. 218.
4. Makkaga ka'bapo'sh jo'natgan temuriy shahzoda yoxud Shohruh Mirzoning hukmronlik davri. 13.08.2021. <https://qalampir.uz/uz/news/makkaga-ka-bapush-zhunatgan-temuriy-sha%D2%B3zoda-yekhud-sho%D2%B3ru%D2%B3-mirzoning-%D2%B3ukmronlik-davri-44263>
5. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent: Sharq, 2000. B. 320.
6. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. I jild. Toshkent: Yangi asr avlod, 2014. B. 351.

III МНПК "НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ"

22 ноября 2024, Россия – Узбекистан

www.iupr.ru, <https://wosjournals.com/>

7. O‘zbekiston tarixi. Xrestomatiya. 2-jild, 2-kitob. Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. B. 196.
8. Ravshanov P. Temuriylar silsilasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. B. 36.
9. Shohrux Mirzo. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/shohrux-mirzo/>
10. G’iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015. B. 128.
11. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. Toshkent: Fan, 1996. B. 66.
12. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. Toshkent: Sharq, 1995. B. 193.
13. Naqqosh Giyosiddin. Xitoy safari kundaligi. O. Bo‘riyev tarjimasi. Toshkent: Mashhur-Press, 2017. B. 91.
14. Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. B. 106.
15. Ma’naviyat yulduzları (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. B. 208.

WORDLY
KNOWLEDGE